

H u k m  
O'zbekiston Respublikasi nomidan

2022 yil 14 mart kuni jinoyat ishlari bo'yicha Mirishkor tuman sudining ochiq sayyor sud majlisi Qarshi shahar "Kunchiqar" mahalla fuqarolar yig'ini binosida bo'lib, tuman sudining raisi B.Tagayevning raisligida, sudya yordamchisi A.Temirovning kotibligida, taraflardan davlat ayblovchisi Mirishkor tuman prokurorining katta yordamchisi B.G'oziyev va himoyachi-advokat E.Ulug'xanovalarning ishtirokida Abdualimov Azizjon Azim o'g'li, Chorshanbiyev Shoxrux Qulmurot o'g'li va Nazarqulov Shoxruxmirzo Xusniddin o'g'lilarni O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining "v,g" bandlari bilan ayblash haqidagi 1-1811-2201/48-sonli jinoyat ishini ko'rib chiqdi.

Abdualimov Azizjon Azim o'g'li - 1988 yil 17 noyabrda Mirishkor tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston fuqarosi, ma'lumoti o'rta-maxsus, bo'ydoq muqaddam sudlanmagan, hech qayerda ishlamaydi, Mirishkor tuman "Navbahor" MFYda yashaydi, ehtiyot chorasi tariqasida munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat extiyot chorasi qo'llanilgan, ayblov xulosasi nusxasini 2022 yil 1 mart kuni olgan.

Chorshanbiyev Shoxrux Qulmurot o'g'li - 2000 yil 13 dekabrda Mirishkor tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston fuqarosi, ma'lumoti o'rta-maxsus, bo'ydoq muqaddam sudlanmagan, hech qayerda ishlamaydi, Mirishkor tuman "Navbahor" MFYda yashaydi, ehtiyot chorasi tariqasida munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat extiyot chorasi qo'llanilgan, ayblov xulosasi nusxasini 2022 yil 1 mart kuni olgan.

Nazarqulov Shoxruxmirzo Xusniddin o'g'li - 2000 yil 14 mayda Mirishkor tumanida tug'ilgan, millati o'zbek, O'zbekiston fuqarosi, ma'lumoti o'rta-maxsus, bo'ydoq muqaddam sudlanmagan, hech qayerda ishlamaydi, Mirishkor tuman, "Navbahor" MFY Elobod qishlog'ida yashaydi, ehtiyot chorasi tariqasida munosib xulq-atvorda bo'lish haqida tilxat extiyot chorasi qo'llanilgan, ayblov xulosasi nusxasini 2022 yil 1 mart kuni olgan

Sud ochiq sud majlisida sudlanuvchilar, jabrlanuvchi va guvohlarning ko'rsatuvlarini, prokuror va himoyachining muzokara nutqlari, sudlanuvchining muzokara, himoya va oxirgi so'zlarini tinglab, jinoyat ishidagi dalillarni o'rganib chiqib, quyidagilarni

a n i q l a d i :

Sudlanuvchi A.Abdualimov jinoiy sheriklari Sh.Chorshanbiyev va Sh.Nazarqulov bilan 2022 yil 16 yanvar kuni soat 19-00 larda o'zganing mol-mulkini o'g'irlik qilish yo'li bilan talon-toroj qilish maqsadida o'zaro jinoiy til biriktirib, bir guruhga birlashib, o'zi shu guruhga rahbarlik qilib, jinoiy reja tuzishib, tuzgan jinoiy rejalariga asosan jinoiy sherigi Sh.Chorshanbiyev bilan birga Mirishkor tumani, "Navbahor" MFY, Elobod



qishlog'ida yashovchi fuqaro Turdimurodova Rushana Urinovnaning hovlisining xonasiga g'ayriqonuniy ravishda kirishib, yashash uyi xonasini derazasiga o'rnatilgan, bozor bahosi 800.000 so'mlik "BK-1.800" rusumli konditsionerini o'rnatilgan joyidan sug'irib olishib, ko'chaga olib chiqishib, oldindan tuzilgan jinoiy rejaga asosan jinoiy sherigi Sh.Nazarqulovning boshqaruvidagi, fuqaro Xudoyqulov Fazliddin Olimovichning shaxsida bo'lgan "Neksiya-2" 70T649JA davlat raqamli avtomashinani yukxonasiga ortishib, o'zganing mulkini o'g'irlik yo'li bilan yashirin ravishda talon-toroj qilishib, Qarshi tumani, Kaxlak qishlog'ida yashovchi fuqaro Amonov Furqatjon Israyilovichga 450.000 so'mga sotib yuborishib, ushbu pullarni o'zaro o'rtalarida taqsimlashib, o'zlarining ehtiyojlari uchun ishlatib yuborishgan.

Sudlanuvchi A.Abdualimov o'zining bu harakati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining "v,g" bandlarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilgan.

Sudlanuvchi Sh.Chorshanbiyev jinoiy sheriklari A.Abdualimov va Sh.Nazarqulovlar bilan 2022 yil 16 yanvar kuni soat 19-00 larda o'zganing mol-mulkini o'g'irlik qilish yo'li orqali talon-toroj qilish maqsadida o'zaro jinoiy til biriktirib, bir guruhga birlashib, o'zi shu guruhga a'zo bo'lib, jinoiy reja tuzishib, tuzgan jinoiy rejalariga asosan jinoiy sherigi A.Abdualimov bilan birga Mirishkor tumani, "Navbahor" MFY, Elobod qishlog'ida yashovchi fuqaro Turdimurodova Rushana Urinovnaning hovlisi yashash xonasiga g'ayriqonuniy ravishda kirishib, yashash uyi xonasini derazasiga o'rnatilgan, bozor bahosi 800.000 so'mlik "BK-1.800" rusumli konditsionerini o'rnatilgan joyidan sug'irib olishib, ko'chaga olib chiqishib, oldindan tuzilgan jinoiy rejaga asosan jinoiy sherigi Sh.Nazarqulovning boshqaruvidagi, fuqaro Xudoyqulov Fazliddin Olimovichning shaxsida bo'lgan "Neksiya-2" 70T649JA davlat raqamli avtomashinani yukxonasiga ortishib, o'zganing mulkini o'g'irlik yo'li bilan yashirin ravishda talon-toroj qilishib, Qarshi tumani, Kaxlak qishlog'ida yashovchi fuqaro Amonov Furqatjon Israyilovichga 450.000 so'mga sotib yuborishib, ushbu pullarni o'zaro o'rtalarida taqsimlashib, o'zlarining ehtiyojlari uchun ishlatib yuborishgan.

Sudlanuvchi Sh.Chorshanbiyev o'zining bu harakati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining "v,g" bandlarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilgan.

Sudlanuvchi Sh.Nazarqulov jinoiy sheriklari A.Abdualimov va Sh.Chorshanbiyevlar bilan 2022 yil 16 yanvar kuni soat 19-00 larda o'zganing mol-mulkini o'g'irlik qilish yo'li orqali talon-toroj qilish maqsadida o'zaro jinoiy til biriktirib, bir guruhga birlashib, o'zi shu guruh a'zosi bo'lib, jinoiy reja tuzishib, tuzgan jinoiy rejalariga asosan jinoiy sheriklari A.Abdualimov va Sh.Chorshanbiyevlarni o'zining boshqaruvida bo'lgan "Neksiya-2" rusumli 70T649JA davlat raqamli avtomashinada Mirishkor tumani, "Navbahor" MFY, Elobod qishlog'ida yashovchi fuqaro Turdimurodova Rushana Urinovnaning yashash uyi oldiga olib borib, tuzgan rejalariga ko'ra o'zi avtomashinada qolib, sheriklari A.Abdualimov va Sh.Chorshanbiyevlar R.Turdimurodovanning yashash uyi hovlisi yashash xonasiga g'ayriqonuniy ravishda kirishib, uni yashash uyi xonasini derazasiga o'rnatilgan, 800.000 so'mlik "BK-1.800" rusumli konditsionerini o'rnatilgan joyidan sug'irib ko'chaga olib chiqishib, uning boshqaruvidagi, fuqaro Xudoyqulov Fazliddin Olimovichning shaxsida bo'lgan "Neksiya-2" rusumli 70T649JA davlat raqamli



avtomashinani yukxonasiga ortishib, o'zganing mulkini o'g'irlik yo'li bilan yashirin ravishda talon-toroj qilishib, Qarshi tumani, Kaxlak qishlog'ida yashovchi fuqaro Amonov Furqatjon Israyilovichga 450.000 so'mga sotib yuborishib, ushbu pullarni o'zaro o'rtalarida taqsimlashib, o'zlarining ehtiyojlari uchun ishlatib yuborishgan.

Sudlanuvchi Sh.Nazarqulov o'zining bu harakati bilan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining "v,g" bandlarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilgan.

Sudlanuvchi A.Abdualimov sudda, o'ziga quyilgan aybga iqrorklik bildirib, "Mirishkor tumani, "Navbahor" MFY, Elobod qishlog'ida yashovchi Turdimurodova Rushana momani yoshligidan tanishini, uzoqroq qarindosh bo'lishini, har zamonda u kishini uyiga borib turishini, Nazarqulov Shoxruxmirzo Xusniddin o'g'li va Chorshanbiyev Shoxrux Qulmurod o'g'lilar bilan bir mahallada birga yashashlarini, ular bilan yoshlikdan o'rtoq bo'lganligini, 2022 yil 16 yanvar kuni soat taxminan 17-00 larda Nazarqulov Shoxruxmirzo va Chorshanbiyev Shoxruxlar bilan uchrashib qolganligini, Sh.Nazarqulovni boshqaruvida bo'lgan "Neksiya-2" rusumli 70T649JA davlat raqamli avtomashinada kelishganligini, avtomashinani Shoxruxmirzoni o'zi boshqarib kelganligini, o'zaro suhbat davomida o'rtoqlariga muqaddam bir mahallada yashab, hozirda Qarshi tumani Kaxlak qishlog'ida yashovchi, eski konditsioner sotib olib yuruvchi Furqat qishlog'iga kelib konditsioner sotib olib yurganligini ko'rganligini aytganligini, ulardan kimni uyida eski konditsioner borligini so'rganligini, ular bilan o'zaro konditsioner haqidagaplashayotgan vaqtida qishloqdoshi Turdimurodova Rushana momani uyini derazasiga eski "BK" rusumli konditsioner o'rnatilganligini ko'rganligi esiga tushib, sheriklariga bu haqida aytganligini, shundan so'ng o'zaro gaplashib ushbu konditsionerni o'g'irlab, Qarshi tumanida yashovchi eski konditsioner sotib oladigan Furqatga sotib, konditsionerni pulini o'zlarini ehtiyojlariga ishlatishni rejalashtirishganligini, o'zaro gaplashib, Rushana momani uyini derazasiga o'rnatilgan konditsionerni o'g'irlamoqchi bo'lishganligini, shu kuni soat taxminan 19-00 larda Shoxruxmirzoni boshqaruvida bo'lgan "Neksiya-2" rusumli 70T649JA davlat raqamli avtomashina bilan Rushana momani uyi yaqinida bo'lgan burilish joyga borib to'xtatib, o'zaro kelishuvlariga ko'ra Shoxruxmirzo ko'chada avtomashinasida qolib, avtomashinani ketish yo'liga to'g'irlab, ularni konditsionerni o'g'irlab olib chiqishlarini kutib turishi, Shoxrux bilan birga Rushana momani uyiga kirib, yashash xonasini derazasiga o'rnatilgan konditsionerni o'g'irlab chiqishganligini, Shoxrux bilan birga konditsionerni ko'tarib derazadan pastga tushurishganligini, ikkalasi konditsionerni ikki tomonidan ushlab ko'chaga ko'tarib chiqib, Shoxruxmirzo o'tirgan avtomashina turgan joyga olib borib, ochiq turgan yukxonaga konditsionerni ortib, yo'lga chiqqanlaridan so'ng sheriklaridan eski konditsioner sotib oladigan Furqatni telefon raqami bor yoki yo'qligini so'rganida Shoxrux uni telefon nomeri telefonida borligini aytganligini, Shoxruxni telefonini olib, Furqatga telefon qilganligini, Furqat uni tanib u bilan so'rashganidan so'ng undan nima gapligini so'rganida unga "sotiladigan eski konditsioner bor, ushbu konditsionerni sotib olasizmi"deb so'rganligini, Furqat aka unga konditsionerni sotib olishini, uyiga olib borishini aytganligini, so'ng Shoxruxmirzoni avtomashinasida Furqat aka yashaydigan Kaxlyak qishlog'i tomonga borishganligini, u kishini oldiga borib, o'zaro u kishi bilan kelishib, u kishiga konditsionerni 450.000 so'mga sotishganligini, Furqat akaga konditsionerni o'g'irlab olib kelayotganligini aytmaganligini, Qarshi tumani hududidan o'tayotgan vaqtlarida yo'lni chekka qismida joylashgan yoqilg'i quyish shaxobchasiga kirib konditsionerni



pulidan 75.000 so'mga Shoxruxmirzoni avtomashinasiga 10 litr benzin sotib olishganligini, 105.000 so'mga ovqatlanganliklarini, qolgan 270.000 so'm puldan 100.000 so'mini o'ziga, qolgan 170.000 so'm pulni Shoxruxmirzo bilan Shoxrux ikkalasi 85.000 so'mdan bo'lib olishganligini, sodir etgan harakatidan pushaymonda ekanligini, yetkazilgan zararlarni qoplashganligini bildirib suddan qonuniy yengillik berishni so'radi.

Sudlanuvchi Sh.Chorshanbiyev sudda, o'ziga quyilgan aybga iqrorlik bildirib, jabrlanuvchi Turdimurodova Rushana momani yoshligidan tanishini, Nazarqulov Shoxruxmirzo va Abdualimov Azizbek bilan bir mahallada birga yashashlarini, 2022 yil 16 yanvar kuni soat taxminan 17-00 larda yashash uyidan chiqib, ko'chani boshiga borayotgan vaqtda o'rtog'i Shoxruxmirzoni amakisi Fazliddin akaga tegishli bo'lgan "Neksiya-2" rusumli 70T649JA davlat raqamli avtomashinani yashash uyini hovlisidan boshqarib chiqayotganligini ko'rganligini, uni avtomashinasini old o'rindig'iga o'tirib, qishloqdagi bozorcha tomon boshqarganligini, u yerda o'rtog'i Azizbekni bir o'zi o'tirganligini, u bilan ko'rishganliklarini, o'zaro suhbat davomida Azizbek Qarshi tumani Kaxlak qishlog'ida yashovchi, eski konditsioner sotib olib yuruvchi Furqat aka qishlog'iga kelib konditsioner sotib olib yurganligini ko'rganligini aytganligini, kimni uyida eski konditsioner borligini so'raganligini, o'zaro suhbatlashib o'tirgan vaqtlarida Azizbekni o'zi qishloqdoshi Turdimurodova Rushana momani uyini derazasiga eski "BK" rusumli konditsioner o'rnatilganligini ko'rganligini aytganligini, o'zaro gaplashib ushbu konditsionerni o'g'irlab, Qarshi tumanida yashovchi eski konditsioner sotib oladigan Furqat akaga sotib, konditsionerni pulini o'zlarini ehtiyojlariga ishlatishni rejalashtirishganligini, soat 19-00 larda Shoxruxmirzoni boshqaruvida bo'lgan "Neksiya-2" rusumli 70T649JA davlat raqamli avtomashina bilan Rushana momani uyi yaqinida bo'lgan burilish joyga borib to'xtatishganligini, o'zaro kelishuvlariga ko'ra Shoxruxmirzo ko'chada avtomashinada qolib, avtomashinani ketish yo'llariga to'g'irlab, Azizbek bilan birga Rushana momani uyiga kirib, yashash uyni xonasidagi derazasiga o'rnatilgan konditsionerni o'g'irlab chiqishganligini, Aziz bilan konditsionerni birga ko'tarib derazadan pastga tushurib olib chiqishganligini, Shoxruxmirzoni avtomashinasi turgan joyga olib borib, ochiq turgan yukxonaga konditsionerni ortib, Furqat akaga sotish uchun olib ketishganligini, Furqat aka bilan Aziz kelishganligini va unga konditsionerni 450.000 so'mga sotganligini, puldan 75.000 so'miga mashinaga benzin sotib olishganligini, 105.000 so'miga ovqatlanishganligini, qolgan 270.000 so'm puldan 100.000 so'mini Azizbekga olganligini Shoxruxmirzo bilan o'ziga 85.000 so'mdan bo'lib olishganligini, sodir etgan harakatidan pushaymonda ekanligini, yetkazilgan zararlarni qoplashganligini bildirib suddan qonuniy yengillik berishni so'radi.

Sudlanuvchi Sh.Nazarqulov sudda, o'ziga quyilgan aybga iqrorlik bildirib, sudlanuvchilar Chorshanbiyev Shoxrux va Abdualimov Azizbek bilan bir mahallada birga yashashlarini, 2022 yil 16 yanvar kuni soat taxminan 17-00 larda yashash uyida turgan har zamonda boshqarib daladagi mollaridan xabar olish uchun borib turadigan amakisi Xudoyqulov Fazliddinga tegishli bo'lgan "Neksiya-2" rusumli 70T649JA davlat raqamli avtomashinani boshqarib ko'chaga chiqayotgan vaqtda uyi tomondan o'rtog'i Shoxrux kelib qolganligini, u avtomashinamni old o'ng tomon o'rindig'iga o'tirganligini, qishlog'idagi bozorchada Azizbek uchratib qolishganligini, u ham mashinaga minganligini, o'zaro suhbatlari davomida Azizbek Qarshi tumani Kaxlak qishlog'ida yashovchi, eski konditsioner sotib olib yuruvchi Furqat aka qishlog'iga kelib konditsioner sotib olib yurganligini ko'rganligini aytganligini, kimni uyida eski



konditsioner borligini so'rganligini, o'zaro suhbatlashib o'tirgan vaqtlarida Azizbekni o'zi qishloqdoshi Turdimurodova Rushana momani uyini derazasiga eski "BK" rusumli konditsioner o'rnatilganligini ko'rganligini aytganligini, o'zaro gaplashib ushbu konditsionerni o'g'irlab, Qarshi tumanida yashovchi eski konditsioner sotib oladigan Furqat akaga sotib, konditsionerni pulini o'zlarini ehtiyojlariga ishlatishni rejalashtirishganligini, soat 19-00 larda uni boshqaruvida bo'lgan "Neksiya-2" rusumli 70T649JA davlat raqamli avtomashina bilan Rushana momani uyi yaqinida bo'lgan burilish joyga borib to'xtatishganligini, o'zaro kelishuvlariga ko'ra u ko'chada avtomashinada qolib, avtomashinani ketish yo'llariga to'g'irlab, Azizbek bilan birga Rushana momani uyiga kirib, yashash uyni xonasidagi derazasiga o'rnatilgan konditsionerni o'g'irlab chiqishganligini, Aziz va Shoxrux konditsionerni birga ko'tarib derazadan pastga tushurib olib chiqishganligini, avtomashinasi turgan joyga olib borib, ochiq turgan yukxonaga konditsionerni ortib, Furqat akaga sotish uchun olib ketishganligini, Furqat aka bilan Aziz kelishganligini va unga konditsionerni 450.000 so'mga sotganligini, puldan 75.000 so'miga mashinaga benzin sotib olishganligini, 105.000 so'miga ovqatlanishganligini, qolgan 270.000 so'm puldan 100.000 so'mini Azizbekga olganligini Shoxrux bilan o'ziga 85.000 so'mdan bo'lib olishganligini, sodir etgan harakatidan pushaymonda ekanligini, yetkazilgan zararlarni qoplashganligini bildirib suddan qonuniy yengillik berishni so'radi.

Jabrlanuvchi R.Turdimurodova sudda, Abdualimov Azizjon, Chorshanbiyev Shoxrux va Nazarqulov Shoxruxmirzolarini yoshligidan tanishini, ularni ota-onalari bilan bordi-keldi qilib turishini, 2022 yil 16 yanvar kuni kechki vaqt soat 19-00 larda yashash uyini hovlisidan chiqib, uyidan taxminan 200 metrlik uzoqlikda turadigan qizini uyiga borganligini, eshigini qulflamasdan ochiq holatda qoldirib ketganligini, qizini uyida biroz vaqt o'tirib, u yerda bo'lgan kelini Soxiyeva Zebo, nabiralari Abdialimova Iroda va Husniddinova Umidalar bilan birga yashash uyiga qaytib kelganligini, yashash uyiga kelgan vaqtida yashash uyini hovlisini darvozasini eshigi ochiq holatda turganligini, nabirasi bilan birga yashash uyini hovlisiga kirishganligini, uyini hovlisiga qaragan derazasini oldidan o'tayotgan vaqtida derazaga o'rnatilgan, orqa qismi bilan hovliga qaragan, old qismi bilan xona ichiga qaragan "BK-1.800" rusumli konditsionerim joyida yo'qligini, konditsionerni old qismidagi qoplamasi deraza ostiga yerga tushib yotganligini, konditsionerni kimdir o'rnatilgan joyidan sug'irib olib ketganligini bilganligini, keyinchalik bu o'g'irlikni sudlanuvchilar sodir qilganligini bilganligini, sudlanuvchilar unga yetkazilgan zararni qoplab berganliklarini, ularga nisbatan da'vosi yo'qligini bildirib sudlanuvchilarni yoshligini va ularga da'vosi yo'qligini inobatga olib qonuniy yengillik berishni so'radi.

Fuqaroviy da'vogar F.Amonov sudda, 2022 yil 16 yanvar kuni soat taxminan 20-30 larda yashash uyida o'tirgan vaqtda uni qo'l telefoniga notanish raqamdan telefon kelganligini, tanishi sudlanuvchi Abdualimov Azizjon u bilan salomlashib, o'zaro suhbatlashganligini, undan nima gapligini so'rganida, Aziz unga sotiladigan eski "BK" rusumli konditsioneri borligini, ushbu konditsionerini sotmoqchi ekanligini aytib uni qayerda ekanligini so'rganligini, Aziz unga kondetsionerini sotish uchun uni qishlog'iga kelayotganligini, yashash uyini joylashgan manzilini so'rganligini, unga yashash uyini "Kaxlak" qishlog'ini chekkasida joylashganligini aytganligini, oradan biroz vaqt o'tganidan so'ng Aziz oq rangli "Neksiya-2" rusumli avtomashinada qishloqdoshlari Chorshanbiyev Shoxrux, Nazarqulov Shoxruxmirzolar bilan kelishganligini, Aziz unga sotiladigan eski "BK" rusumli konditsioneri borligini, Qarshi shahriga ish bilan ketayotganliklarini, shu sababli konditsionerini sotish uchun olib



kelganligini aytganligini, unga avtomashinani yukxonasiga ortilgan eski “BK” rusumli konditsionerni ko’rsatganligini, konditsionerni ko’rganida konditsionerni old qismida bo’lgan qoplamasi yo’q holatda bo’lganligini, Azizdan “konditsioner kimga tegishli, o’g’irlamaganmi”deb so’rganida unga konditsioner o’ziga tegishli ekanligini, o’g’irlamaganligini aytganligini, shunda konditsionerni 450.000 so’mga sotib olganligini, pulini Azizga berganligini, keyinchalik konditsioner o’g’irlanganligini bilganligini, hozirda unga yetkazilgan zarar qoplanganligini, sudlanuvchilarga nisbatan da’vosi yo’qligini bildirdi.

Bundan tashqari, sudlanuvchilar Abdualimov Azizjon Azim o’g’li, Chorshanbiyev Shoxrux Qulmurot o’g’li va Nazarqulov Shoxruxmirzo Xusniddin o’g’lilarning ayblari, o’zlarining ayblariga iqrorlik bildirib bergan ko’rsatuvlari, jinoyat ishini qo’zg’atish va ish yurituviga olish qarori, 2022 yil 17 yanvar kunidagi hodisa joyini ko’zdan kechirish bayonnomasi, sxema, fotosuratlar, dastlabki tergov jarayonidagi jabrlanuvchi va guvohlarning ko’rsatuvlari, ashyoviy dalillarni olish to’g’risidagi bayonnoma, fotosuratlar, ekspertiza xulosasi hamda jinoyat ishida mavjud boshqa dalillar bilan to’liq o’z isbotini topdi.

Dastlabki tergov organi tomonidan sudlanuvchilar Abdualimov Azizjon Azim o’g’li, Chorshanbiyev Shoxrux Qulmurot o’g’li va Nazarqulov Shoxruxmirzo Xusniddin o’g’lilarning harakatlari O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining “v,g” bandlari bilan to’g’ri kvalifikatsiya qilingan.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 7-moddasiga ko’ra, jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishi va yangi jinoyat sodir etishining oldini olish uchun zarur hamda yetarli bo’ladigan jazo tayinlanishi yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi qo’llanilishi kerak.

Shu Kodeksning 8-moddasiga binoan, jinoyat sodir etishda aybdor bo’lgan shaxsga nisbatan qo’llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta’sir chorasi odilona bo’lishi, ya’ni jinoyatning og’ir-yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo’lishi lozim.

O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006 yil 3 fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to’g’risida”gi 1-sonli qarorining 1, 3-bandlarida “Sudlarning e’tibori jinoyat uchun jazo tayinlashda qonuniylik, insonparvarlik, odillik va javobgarlikning muqarrarligi prinsiplariga qat’iy amal qilishga qaratilsin”, “Jinoyat kodeksining 8, 54-moddalari mazmuniga ko’ra, jazo adolatli bo’lishi-har bir holatda individual tayinlanishi, jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga, aybdorning shaxsiga, shuningdek, jazoni yengillashtiruvchi va og’irlashtiruvchi holatlarga muvofiq bo’lishi kerak”,- deb tushuntirish berilgan.

Sud sudlanuvchi A.Abdualimovga jazo tayinlashda uning aybiga iqror va chin ko’ngildan pushaymonligini, muqaddam sudlanmaganligini, yoshligini, jabrlanuvchi va fuqaroviy da’vogarning unga nisbatan da’volari yo’qligini, yetkazilgan zararlar qoplanganligini jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida, jinoyatni g’araz va past niyatlarda sodir etganligini jazosini og’irlashtiruvchi holat deb baholab, unga jinoyat sodir etilishida ishtirokchilik darajasini e’tiborga olib, unga Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining “v,g” bandlari bilan ish haqining 20 foizini davlat daromadiga ushlab qolgan holda axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlashni, tayinlanayotgan axloq tuzatish ishlari jazosi mazkur jazo ijrosini nazaorat qiluvchi organlar belgilab beradigan joylarda o’tattirishni, jazoni o’tash muddatini axloq tuzatish ishlari jazosiga jalb qilinib, ish haqidan ushlangan kundan boshlab



hisoblashni, jazo ijrosini nazorat qilishni Mirishkor tuman IIO Probatsiya guruhi mutasaddilari zimmasiga yuklatishni, ehtiyot chorasi hukm qonuniy kuchga kirgandan so'ng bekor qilishni lozim topdi.

Sud sudlanuvchi Sh.Chorshanbiyevga jazo tayinlashda uning aybiga iqrор va chin ko'ngildan pushaymonligini, muqaddam sudlanmaganligini, yoshligini, jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogarning unga nisbatan da'volari yo'qligini, yetkazilgan zararlar qoplanganligini jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida, jinoyatni g'araz va past niyatlarda sodir etganligini jazosini og'irlashtiruvchi holat deb baholab, unga jinoyat sodir etilishida ishtirokchilik darajasini e'tiborga olib, unga Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining "v,g" bandlari bilan ish haqining 20 foizini davlat daromadiga ushlab qolgan holda axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlashni, tayinlanayotgan axloq tuzatish ishlari jazosi mazkur jazo ijrosini nazaorat qiluvchi organlar belgilab beradigan joylarda o'tattirishni, jazoni o'tash muddatini axloq tuzatish ishlari jazosiga jalb qilinib, ish haqidan ushlangan kundan boshlab hisoblashni, jazo ijrosini nazorat qilishni Mirishkor tuman IIO Probatsiya guruhi mutasaddilari zimmasiga yuklatishni, ehtiyot chorasi hukm qonuniy kuchga kirgandan so'ng bekor qilishni lozim topdi.

Sud sudlanuvchi Sh.Nazarqulovga jazo tayinlashda uning aybiga iqrор va chin ko'ngildan pushaymonligini, muqaddam sudlanmaganligini, yoshligini, jabrlanuvchi va fuqaroviy da'vogarning unga nisbatan da'volari yo'qligini, yetkazilgan zararlar qoplanganligini jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida, jinoyatni g'araz va past niyatlarda sodir etganligini jazosini og'irlashtiruvchi holat deb baholab, unga jinoyat sodir etilishida ishtirokchilik darajasini e'tiborga olib, unga Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining "v,g" bandlari bilan ish haqining 20 foizini davlat daromadiga ushlab qolgan holda axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlashni, tayinlanayotgan axloq tuzatish ishlari jazosi mazkur jazo ijrosini nazaorat qiluvchi organlar belgilab beradigan joylarda o'tattirishni, jazoni o'tash muddatini axloq tuzatish ishlari jazosiga jalb qilinib, ish haqidan ushlangan kundan boshlab hisoblashni, jazo ijrosini nazorat qilishni Mirishkor tuman IIO Probatsiya guruhi mutasaddilari zimmasiga yuklatishni, ehtiyot chorasi hukm qonuniy kuchga kirgandan so'ng bekor qilishni lozim topdi.

Shuningdek, ashyoviy dalil tariqasida e'tirof etilgan 1 dona "BK-1.800" rusumli konditsioner jabrlanuvchi R.Turdimurodovaga tilxat orqali qaytarilganligini, uning da'vosi yo'qligini, fuqaroviy da'vogar F.Amonovga yetkazilgan 450.000 so'mlik zarar qoplanganligini qayd qilishni lozim topdi.

Yuqorida bayon qilinganlarga ko'ra va Jinoyat-protsessual kodeksining 454-457, 460, 462, 463, 464-468, 471-473-moddalariga amal qilib, sud

### h u k m    q i l d i :

Abdualimov Azizjon Azim o'g'li O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining "v,g" bandlarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda aybli deb topilsin.

Unga Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining "v,g" bandlari bilan ish haqining 20 foizini davlat daromadiga ushlab qolgan holda 2 (ikki) yil 6 (olti) oy muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlansin.

A.Abdualimovga tayinlangan axloq tuzatish ishlari jazosi mazkur jazo ijrosini nazaorat qiluvchi organlar belgilab beradigan joylarda o'tattirilsin. Jazoni o'tash



muddati axloq tuzatish ishlari jazosiga jalb qilinib, ish haqidan ushlangan kundan boshlab hisoblansin. Jazo ijrosini nazorat qilish Mirishkor tuman IIO Probatsiya guruhi mutasaddilari zimmasiga yuklatilsin.

A.Abdualimovning ehtiyot chorasi hukm qonuniy kuchga kirgandan so'ng bekor qilinsin.

Chorshanbiyev Shoxrux Qulmurot o'g'li O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining "v,g" bandlarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda aybli deb topilsin.

Unga Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining "v,g" bandlari bilan ish haqining 20 foizini davlat daromadiga ushlab qolgan holda 2 (ikki) yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlansin.

SH.Chorshanbiyevga tayinlangan axloq tuzatish ishlari jazosi mazkur jazo ijrosini nazaorat qiluvchi organlar belgilab beradigan joylarda o'tattirilsin. Jazoni o'tash muddati axloq tuzatish ishlari jazosiga jalb qilinib, ish haqidan ushlangan kundan boshlab hisoblansin. Jazo ijrosini nazorat qilish Mirishkor tuman IIO Probatsiya guruhi mutasaddilari zimmasiga yuklatilsin.

SH.Chorshanbiyevning ehtiyot chorasi hukm qonuniy kuchga kirgandan so'ng bekor qilinsin.

Nazarqulov Shoxruxmirzo Xusniddin o'g'li O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining "v,g" bandlarida nazarda tutilgan jinoyatni sodir qilganlikda aybli deb topilsin.

Unga Jinoyat kodeksi 169-moddasi 2-qismining "v,g" bandlari bilan ish haqining 20 foizini davlat daromadiga ushlab qolgan holda 2 (ikki) yil muddatga axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlansin.

SH.Nazarqulovga tayinlangan axloq tuzatish ishlari jazosi mazkur jazo ijrosini nazaorat qiluvchi organlar belgilab beradigan joylarda o'tattirilsin. Jazoni o'tash muddati axloq tuzatish ishlari jazosiga jalb qilinib, ish haqidan ushlangan kundan boshlab hisoblansin. Jazo ijrosini nazorat qilish Mirishkor tuman IIO Probatsiya guruhi mutasaddilari zimmasiga yuklatilsin.

SH.Nazarqulovning ehtiyot chorasi hukm qonuniy kuchga kirgandan so'ng bekor qilinsin.

Ashyoviy dalil tariqasida e'tirof etilgan 1 dona "BK-1.800" rusumli konditsioner jabrlanuvchi R.Turdimurodovaga tilxat orqali qaytarilganligi va uning da'vosi yo'qligi qayd qilinsin.

Fuqaroviy da'vogar F.Amonovga yetkazilgan 450.000 so'mlik zarar qoplanganligi qayd qilinsin.

Ushbu hukmdan norozi tomonlar, hukm e'lon qilingan kundan, sudlanuvchilar va jabrlanuvchilar hukm nusxasi topshirilgan kundan e'tiboran shu sud orqali Qashqadaryo viloyat sudining jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'atiga yigirma sutka muddat ichida apellyatsiya tartibida shikoyat qilishga, prokuror protest keltirishga haqlidirlar.

Raislik qiluvchi

B.Tagayev

